

**KO'RGAZMALI VOSITALARINING TA'LIM SIFATINI
OSHIRISHDAGI O'RNI**

Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti professori.

Annotatsiya: Ma'lumki, ta'lim jarayonining muvaffaqiyati unda qo'llanilayotgan metodlar bilan birga ko'rgazmali vositalarining sifatiga ham bog'liqdir. Ushbu maqolada ko'rgazmali vositalarning dars sifatiga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ma'lumot, matn, didaktik vosita, diktant, tahlil

Ko'rgazmali qurollar boshqa fanlar kabi ona tili o'qitishda ham keng qo'llaniladi. Ko'rgazmali qurollar, bir tomondan, o'qituvchi bayonining isboti, tasdig'i bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, berilayotgan ma'lumotlarni o'quvchilar tomonidan tez va sifatli o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi. O'qituvchining bayoni har qancha to'liq bo'lganda ham o'quvchilarning voqealar to'g'risidagi tasavvurlari to'la bo'lmaydi.

O'quvchilarning ko'rsatilgan rasmlarni to'g'ri tahlil qilishlari, ularga qarab gaplar tuza olishlari, bog'lanishli matn yaratishlari, rasmga qarab hikoya qila olishlari ona tili mashg'uloti uchun muhim sanaladi. Ular e'tiboriga havola qilingan rasmlar o'quvchilar nutqining, e'tiborining, kuzatuvchanligining, ijodiy tasavvur etish qobiliyatining o'sishida; mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojida, aqliy va estetik tarbiyasida, ularda muhim amaliy malaka va iqtidor hosil bo'lishida yordam beradi.

Texnika, ilm-fanning rivojlanishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ta'lim sohasida ham murakkab qurilmalardan foydalanish imkoniyatini berdi. Maktab tajribasida magnitafon, radiopriyomnik, televizor, epidiaskop, komp'yuter, proyektor, elektron doska kabi uskunalar qo'llanila boshlandi. Quyi sinflarda o'quvchilarni voqea va hodisalarning yaxlit manzarasi qiziqtirsa, yuqori sinflarda yodgorliklar, shartli ko'rgazmalar va boshqalar qiziqtiradi. O'quvchilarning ko'rgazmali qurollarga munosabati, e'tibori va qiziqishi ham ortib boradi. O'qituvchilar dars oldidan ko'rgazmali qurollarni tahlil qilishlari, saralashlari, mavzularga moslarini tanlashlari kerak. Ko'rgazmali qurollar muhim didaktik vosita bo'lganligi uchun ularga alohida ahamiyat berilishi kerak. Bundan tashqari sifatli ko'rgazmali qurollar ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatlarga ham ega. Shuning uchun ko'rgazmali qurollardan foydalanishda o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklanadi.

Ta'limga antroposentrik yondashuvda tarqatmalar bilan ishlash ham samarali vosita hisoblanadi.

Olinadigan diktant matnlari va shu nazorat ishi tahlili mashg‘ulotida matnga doir kichik suhbatlar tashkil qilish, fikrlashish o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi.

Davlat tili ta’limining ilmiy-nazariy, amaliy muammolaridan biri mazmunli va bog‘lanishli matn yaratish, uni tahlil qilishdir. Metodist olim T. Ziyodova fikricha, “O‘quvchilarning matn ustida ishlash faoliyatini tashkil qilishda o‘qituvchi faqat darslik bilan chegaralanib qolmasdan, ilmiy va badiiy adabiyot, davriy matbuotdan tanlab olingan matnlar, audio-videolavhalardan ham unumli foydalanishi, mazkur mashg‘ulotning mahsuldorligini, o‘quvchilar uchun qiziqarli va zavqli kechishini ta’minlaydi.”

Maktabda “Leksikologiya” bo‘limini izchil kurs sifatida o‘qitish juda katta ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur bo‘limni o‘qitishning ta’limiy ahamiyati shundaki, o‘quvchilar tilning asosiy birligi – so‘z haqidagi ma’lumot bilan tanishadilar va ularning tilni bir butun tizim sifatida tushunishlari hamda o‘zlashtirishlariga imkon tug‘iladi.

Bugun eng faol ta’lim vositalaridan sanalayotgan grafik organayzerlar ko‘rish imkoniyatini hosil qilgani uchun so‘zlarni, uning mohiyatini, ishlatilish o‘rinlari bilan eslab qolishga yordam beradi. Masalan, 5-sinflar uchun mo‘ljallangan yangi ona tili darsligidagi leksikologiya bobiga oid bo‘lgan mashqlarni, deylik, darslikning 110-betidagi 253-mashqni bajarishda ta’lim vositasi sifatida “Lug‘at: ta’riflar” grafik organayzeridan foydalanish mumkin. Mashqni shunchaki qavslarni ochgan holda bajarsa ham bo‘ladi, ammo grafik organayzerlar yordamida izohlansa, o‘quvchilar e’tibori yanada ko‘proq muddat tortiladi, o‘zlashtirishda yaxshi samara beradi hamda kreativlikning o‘ziga xos ko‘rinishini namoyon qiladi.



Ushbu shakl ko‘rinish jihatdan “Jadval” grafik organayzeriga o‘xshab ketadi. Farqli jihati bu organayzerga rasmlar, suratlarni ham joylash imkoniyati mavjud. Mashq shartida qavs ichidagi so‘zlardan mosini tanlash va maqollarni to‘g‘rilab yozish vazifasi qo‘yilgan. Misol: *(Qo‘li, mushti, bilagi) zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r – mingni.*

Ushbu mashqda o‘quvchi qavs ichidagi so‘zlardan birini tanlashi kerak.

Qo‘l	
<p>Ta’rif: Odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo‘lgan qismi, a’zosi</p>	<p>Gapda qo‘llanilishi: baquvvat <i>qo‘llar</i>, <i>qo‘lni</i> oldinga cho‘zmoq, ikki <i>qo‘lni</i> yuqori ko‘tarmoq. Bosh qashigani ham <i>qo‘lim</i> tegmaydi. Yo‘lchi.. ikkinchi <i>qo‘li</i> bilan qora Ahmadning bir <i>qo‘lini</i> orqaga qayirdi. (Oybek, “Tanlangan asarlar”)</p>
<p>Suratda aks etishi:</p>	

Ilm – (miya, bosh, aql) chirog‘i topshirig‘ini bajarishda “**Toifalash**” grafik

organayzeridan foydalaniladi. Chunki mavhum otlarni suratda aks ettirib bo‘lmaydi.

Miya	Bosh	Aql
Odam va baʼzi hayvonlar nerv sistemasining boʻlimi; odamda tafakkur maʼnosini ifodalaydi.	Tananing boʻyindan yuqorigi qismi, oldingi (odamda, hayvonlarda) qismi; kalla. Baʼzan boshqa fanlarda, masalan, anatomiyada bosh soʻzi miya soʻzi bilan birgalikda qoʻllanilishi mumkin.	Fahm-farosat, idrok, es, hush soʻzlariga sinonim boʻlgan soʻz.
Lekin yuqorida keltirilgan maqolga uslubiy jihatdan umuman mos kelmaydi.	Ushbu misol ham yuqorida keltirilgan maqolga uslubiy jihatdan umuman mos kelmaydi.	Uslubiy jihatdan ham oʻrinli. Ilm – aql chirogʻi.
		Ushbu soʻzni suratda aks ettirib boʻlmaydi.

Mashgʻulotda qoʻllangan ushbu usul oʻquvchilarda qiziqish uygʻotadi, bu holat shu fanni chuqurroq oʻrganish uchun turtki vazifasini oʻtaydi. Suratda aks etgan tasvirlarni soʻz bilan toʻgʻri ayta olish, shu soʻzlarga savollar berish, turkumlarga ajratish, ularni tahlil qilish jarayonida nutqiy va lingvistik kompetensiyalari rivojlanib boradi.

Taʼlimga antroposentrik yondashuv jarayonida oʻquvchilarning bilimini baholanadi. Bu oʻrinda ularni ragʻbatlantirish maqsadida didaktik vosita sifatida koʻrgazmali ragʻbat kartochkalaridan foydalanish ham samara beradi.



Koʻrgazmalilik holati meʼyor darajasida boʻlgan, oʻquvchining yoshiga moʻljallab shakllantirilgan ragʻbat kartochkalari oʻrganuvchining faolligini yana ham oshirishi tabiiy hol.

Darsning boshlangʻich nuqtasi qanday chiroyli boshlangan boʻlsa, uning yakuni ham taʼsirli tugashi lozim. Vaqti-vaqti bilan didaktik vosita sifatida koʻrgazmali shaklda mashgʻulotni yakunlash ham oʻziga xos usul hisoblanadi. Yaʼni bunda oʻquvchilar mashgʻulotdan olgan taassurotlarini, maslahatlarini, taklif-mulohazalarin, oʻz fikrlarini, oʻqituvchiga istaklarini didaktik vosita sanaluvchi “Samimiy tilaklar va takliflar savatchasi”da qoldirishsa, oʻqituvchi ularni kelgusi darsda inobatga olishida, eʼtibor qilmagan oʻrinlarini bilib olishida, oʻz ustida ishlashida qoʻl keladi.

Har bir o‘qituvchining ona tili fanidan yaratilgan multimedia ilovalari metodik qo‘llanmalardan ta’lim sifatini oshirishda o‘rinli va maqsadli foydalanish ham mashg‘ulot ta’sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, ona tili darslarida matn ustida ishlashda va ularning xususiyatlari haqidagi mavjud bilimlarini yanada boyitishga multimedialarning o‘rni katta.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida tashkil qilingan til ta’limi mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga insonparvarlik ruhidagi 2-3 daqiqalik videoroliklar namoyish qilish va ko‘rsatilgan tasvirlar asosida matn yaratishlarini topshiriq qilish mumkin.

Bugungi kun o‘quvchisi nanotexnologiyalar asrida yashamoqda. Shuning uchun biz odatlanib qolgan insho yozdirish usuli endi talaba uchun biroz zerikarli tuyuladi. Chunki ularning ko‘pchiligi tezkor va ommabop axborot manbai – internetdan tayyor matnни ko‘chirib qo‘ya qoladi.

Biz taklif etayotgan videomatnli nazorat turlari o‘quvchining ehtiyojiga asosan uning bugun do‘sti bo‘lmish internet bilan hamkorlikda ishlashini ta’minlaydi. Mazkur nazorat turlarini 2011-yildan beri turli bosqich o‘quvchilari orasida sinovdan o‘tkazib ko‘rildi va, ayniqsa, o‘quvchilar o‘rtasida katta qiziqishga sabab bo‘ldi.

Bu nazorat turini qo‘llashdan asosiy maqsad – o‘quvchini zamonaviy texnologik vositalar yordamida o‘z ijodkorligini mustaqil ravishda namoyon etishga o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutq malakalarini hamda tayanch, fanga doir kompetensiyalarini shakllantirish.

Videomatnни yozma ishning bir turi deb ham hisoblash mumkin. Videomatnning boshqa yozma ish turlaridan farqi shundaki, matn yaratish jarayonida o‘quvchining yozma nutqi bilan birgalikda og‘zaki nutqi ham shakllanadi. Bunda matn muallifi o‘zining keng mulohazaga, teran fikrga, aniq bir dunyoqarashga egaligini anglatish uchun mavzuga har tomonlama mos keladigan lavhalar hamda unga ohangdosh tarzda jaranglovchi musiqadan foydalanadi. Videomatn o‘quvchining shaxsiy nutqiy va lingvistik malakasini shakllantirishga hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, o‘quvchilar nutqining, e’tiborining, kuzatuvchanligining, ijodiy tasavvur etish qobiliyatining o‘shida; mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojida, aqliy va estetik tarbiyasida, ularda muhim amaliy malaka hosil bo‘lishida didaktik ta’lim vositalari alohida o‘ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kubryakova Ye.S. Роль словообразованиа в формировании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. – М.: Nauka, 1988. – S. 180.
2. Sobirova M. Ta’limga antroposentrik yondashuv. Monografiya. – Namangan: Usmon Nosir media, 2022.– B.152.
3. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan. 2018. -157 b.

4. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D. Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. To'la yangilangan 5-nashr. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
5. Sobirova M. O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi. Darslik. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. – Namangan: Arjumand media, 2023. – B.512.
6. Sobirova M. Ona tilini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni. "Ilm-fan taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollar" mavzusida xorijiy olimlar ishtirokidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-yil 19-21-dekabr.
7. Sobirova M. Filologik ta'limda ko'rgazmali vositalarning antroposentrik yondashuvdagi o'rni. "Filologiyaning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 1-qism. – Farg'ona: FarDU, 2022. – B.128-131. The actual problems of filology materials of the international scientific conference. – Scientific publication. – Ferghana: FSU, 2022.
8. Sobirova M. Raqamli ta'lim vositalari – ona tili ta'limi jarayoniga insonparvarlikni singdirishda muhim vosita. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2022.№ 5. – B. 624-629.
9. Абдулвохидов Э. Место и значение художественной литературы в повышении эффективности деятельности учителя // International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanities, Hosted from Barcelona, Spain, Jan. 29th 2023, <https://conferencea.org>
10. Абдулвохидов Э. Айтматов-публицист о педагогике // 10th-TECH-FEST-2022 International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England 25th Jan. 2023. <https://conferencea.org>
11. Mamajonovna S. E. O'ZBEK XALQ OG'ZALI IJODIDA ONALIK FOLKLORI POETIKASI //THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 13. – C. 67-73. <https://interonconf.org/index.php/taare/article/view/2654/2375>
12. Mamajonovna E. S. O 'ZBEK VA TURK ALLALARIDA OTA OBRAZINING QIYOSIY TALQINLARI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 561-564. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1851/1689>
13. Habibullayev, Nodirbek Nosirjon O'G'Li QOZOQ VA O'ZBEK TILIDAGI MODAL SO'ZLAR CHOG'ISHTIRMASI // ORIENSS. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qozoq-va-o-zbek-tilidagi-modal-so-zlar-chog-ishtirmasi> (дата обращения: 01.02.2024).
14. Tojiddinova N. H. LINGUOCOGNITIVE FEATURES OF THE PUZZLES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №.

4. – C. 1099-1101.

<https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1922/1484>

15. Tillayeva R. O 'QUVCHILAR FAOLIGINI OSHIRIHSDA TADQIQOT ISHI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI //O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI. C.439. https://tsuull.uz/sites/default/files/02_06_22_toplam_til_va_adabiyot_ilmiy_va_amaliy_izlanishlar_yolidagi_0.pdf#page=439
16. Убайдуллаев Ш.Н. Чет тил дарсларида маданиятлараро мулоқотга ўргатишнинг асосий хусусиятлари. Best Practices in Distance Education in Learning Foreign Languages. International Scientific Conference. –Т., UzSPIC. 2009. – P. 277-279.
17. Dehqanova Guljahon Ahmadjonovna. (2023). NATIONAL -CULTURAL CHARACTERISTICS OF LEXICAL UNITS EXPRESSING THE ECONOMICAL CONDITION OF A PERSON'S LIFE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7951344>
18. Bobajonova Mavjuda. International Journal of Formal Education. ISSN:2720-6870 . Development of Lingvokultural Inofons Competense on Russian Lessons. <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe>
19. Пардабоева Д. Р. Методы обучения на уроках русского языка //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 957-961.
20. Komiljon o'g O. Y. et al. CHARACTERISTICS OF LITERARY TRENDS OF AMERICAN LITERATURE //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1202-1208. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/download/9347/6053>
21. Ибрагимова Н. Т. АКТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ РУССКОМУ ЯЗЫКУ У УЧАЩИХСЯ УРОВНЯ В1 СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 166-170. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4168/5041>
22. Олимова Мохидил. СВОЕОБРАЗНЫЕ ЧЕРТЫ ИВАНА АЛЕКСЕЕВИЧА БУНИНА .International journal of advanced research in education, technology and management ISSN:2349-0012. [vol. 2.2, 2- hind.pdf](http://www.hind.com)